

O'QUVCHILARDA KOGNITIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Ganiev Temirbay Sultanbaevich

katta o'qituvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: *Maqolada kognitiv qobiliyatlarining ahamiyati va tarix darslarida o'quvchilarda ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishda "5 nima uchun" va "Olti qalpoq" metodidan foydalanish usullari ko'rib chiqilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitivlik qobiliyat, pedagogik texnologiyalar, "5 nima uchun" metodi, "Olti qalpoq" metodi*

So'nggi yillarda ta'lim sohasida tub yangilanish harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Maktab ta'limi mamlakatimizda asosiy e'tibor talab qiladigan ta'lim turiga aylandi. Agar dastlabki davrda ta'lim-tarbiya sohasining bosh maqsadi - sifatli ta'lim berishdan iborat bo'lgan bo'lsa, bugun, unga qo'shimcha ravishda, o'qitish jarayoni samaradorligini oshirish vazifalari kun tartibiga kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29-yilligi tantanali bayram tabrigida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga asos solinayotganligini aytib o'tgan bo'lsa, o'zining navbatdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida birinchi navbatda, e'tibor Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilishi kerakligiga alohida to'xtalib, "Madad - ta'limda, madad - tarbiyada, madad - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga ta'lim va tarbiya orqali erishiladi" deb ta'kidladi [1]. Shunday ekan, bu bildirilgan fikrlar, vazifalar maktab o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Kognitiv qobiliyatlar - bu bizning miyamiz, atrofimizdagi olam haqidagi ma'lumotlar, xususan, o'tmishdagi tajriba - biz his-tuyg'ularimiz, fikrlarimiz va qarashlarimiz bilan qabul qiladigan narsalar bilan qanday ishlashiga bog'liq intellektual qobiliyatlar majmuidir [2.343].

"Sana" so'zi bilimlarni o'zlashtirish harakati yoki jarayonini bildirsa-da, kognitiv funksiyalarni ilgari olingan bilimlar yordamida ham amalga oshirish mumkin. Kognitiv ko'nikmalarga misollar qisqa va uzoq muddatli xotira, til yaratish va qayta ishlash, muammolarni hal qilish va naqshni aniqlash asosida bashorat qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Inson ongini o'rganadigan fan kognitiv fan deb ataladi. Bu fanlararo soha bo'lib, inson ongi va uning jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. U falsafa, psixologiya, antropologiya, nevrologiya, filologiya va hatto sun'iy intellekt va kompyuter fanlari kabi sohalarga tayanadi. Kognitiv fan biz narsalarni qanday o'rganishimiz va tushunishimiz, vaziyatlarni qanday baholashimiz va qaror qabul qilishimiz, narsalarni qanday rejalashtirishimiz va muammolarni hal qilishimiz va boshqalarni tushuntirishga harakat

qiladi. Buning uchun kognitiv olimlar turli tajribalar, miya skanerlari va hisoblash modellaridan foydalanadi.

Kognitiv qobiliyatlar bizning hayotimiz uchun asos bo'lib, rivojlanish uchun zarurdir. Bu konsepsiya murakkab va xilma-xil ta'riflarga ega bo'lib, xususan, ratsionallik, skeptitsizm, to'g'ri tahlil va faktlarni tekshirishga qaratilgan. Shunday ekan, tanqidiy fikrlash bu o'zini o'zi boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'rilaydigan fikrlash shaklidir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni talab etadi.

Tarix darslarida o'quvchilarda kognitiv qobiliyatlarni qanday rivojlantirishimiz mumkin? Biz, ushbu maqolamizda o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda ayrim pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini ko'rib chiqamiz.

"5 NE UCHUN" (5 Whys) metodi

Tarixda "5 nima uchun" metodi tarixiy voqealarni faqat yuzaki faktlar bilan cheklanib qolmasdan, "Nima uchun?" degan savolni ketma-ket berish orqali ularning asl sabablarigacha yetib borish usulidir [3]. Sakiti Toyoda tomonidan "Toyota" kompaniyasi uchun yaratilgan usul har bir "nima uchun" obyektiv tarixiy ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam beradi.

Metodning ahamiyati:

"5 nima uchun" metodi - u yoki bu muammoning asosida yotgan sabab-natijaviy bog'lanishlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan texnika. Texnikaning asosiy vazifasi - bitta savolni takrorlash orqali nuqson yoki muammoning yuzaga kelishining asosiy sababini izlash va topishdan iborat.

Har bir keyingi savol oldingi savol javoblariga javob tariqasida beriladi. Natijada muammoga ta'sir ko'rsatuvchi izchil o'zaro bog'langan sabab omillarining butun zanjiri shakllanadi.

Amalga oshirish qoidalari:

1. Ishonch va samimiylik muhitini yarating.
2. Fikr va xulosalarni fakt va bilimlarga asoslang.
3. Javoblaringizni aniqlashga harakat qiling.
4. Sababini ketma-ket izlang. Xulosa chiqarishga shoshilmang.
5. Oxirgi javob noto'g'ri ishlaydigan yoki yo'qolgan jarayonni ko'rsatadi.
6. Asosiy bosqichlar.

1. Asosiy sababini aniqlash zarur bo'lgan asosiy muammoni aniqlang. Muammoni yozing va uning aniq va tushunarli shakllantirilganligiga ishonch hosil qiling.

2. "Nima sababdan muammo yuzaga keldi?" deb so'rang va javob bering.

3. Birinchi javobni qabul qiling va yana "Nima uchun?" deb so'rang.

4. "Nima uchun?" degan beshta savol bering va siz muammoning asl sababini olasiz.

Metodni tarix darsida qanday qo'llash mumkin:

Voqeani shakllantiring: nimani muhokama qilayotganingizni aniq belgilang.

Har bir javobga "Nima uchun?" deb savol bering: Asosiy sababini topmay turib to'xtamang.

Faktlarni tekshiring: Har bir qadam tarixiy hujjatlarga tayanishi kerak.

Metodni qo'llash namunasi: 2-§. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari [4]

1-nima uchun?

Nima uchun qadimgi odamlar diniy e'tiqodlarga ega bo'lishgan?

Sababi, ular tabiat hodisalarini tushuntirib bera olmagan.

2-nima uchun?

Nima uchun ular tabiat hodisalarini tushuntira olmadilar?

Chunki ilm hali rivojlanmagan edi.

3-nima uchun?

Nima uchun ilm rivojlanmagan edi?

Chunki insoniyat hali ilk taraqqiyot bosqichida edi va tajriba hamda bilim yetarli emasdi.

4-nima uchun?

Nega bilim yetarli bo'lmadi?

Chunki bu davrda yozuv, ilmiy kuzatish va ta'lim shakllanmagan edi.

5-nima uchun?

Nima uchun odamlar baribir javob izlashga harakat qilgan?

Chunki inson tabiatiga xos tarzda noma'lum narsalarni tushuntirishga va hayot mazmunini anglashga ehtiyoj sezgan.

Xulosa: ibtidoiy odamlarning tabiat kuchlari oldidagi o'zligi va tabiat hodisalarini tushunmasligi natijasida dastlabki diniy e'tiqodlar paydo bo'lgan.

Usulning afzalliklari:

1. Ketma-ket qo'yilgan savollar muammoni har tomonlama o'rganishga, muammoli vaziyatni tushunishdagi kamchiliklarni to'ldirishga yordam beradi.

2. Usul ko'rib chiqilayotgan muammoning asosiy sababini topish va uni bartaraf etishning oddiy va samarali vositasi hisoblanadi.

"Olti qalpoq" metodi

Metod muayyan mavzu bo'yicha bir nechta, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakat mohiyatini ifodalaydi. Unga ko'ra o'quvchilar 6 xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning ma'lum jarayonlarini amalga oshiradi [3]

Qalpoqlarning rangi quyidagilarni bildiradi:

Oq qalpoq - dalil va raqamlarga tayangan holda ma'lumotlarni aniq ko'rsatish talab etiladi.

Qizil qalpoq-sezgi, sezish, intuitsiya asosida muammoni oldindan sezish.

Qora qalpoq - fikrlarni bayon qilishda ehtiyot bo'lish, dalillarning haqiqatga mos kelishini ta'minlash, fikrlashning aqlga muvofiq bo'lishi kerakligini yodda tutish.

Sariq qalpoq - muammoni samarali yechish yo'llarini izlash, natijalarni ko'ra olish, ahamiyatini baholash zarur.

Yashil qalpoq - ijodiy izlanish, turli takliflarni ko'rib chiqish, yangi g'oyalarni ilgari surish va muqobil variantlarni izlash kerak.

Ko'k qalpoq - fikrlarni tahlil qilish, fikrlash jarayonini kuzatish orqali fikrlarni umumlashtirish, yakuniy qaror qabul qilish.

Fikrlovchi qalpoqchalardan ikki yo'l bilan: ixtiyoriy (2 ta qalpoqchadan) va ketma-ket (navbat bilan barcha qalpoqchadan) foydalanishimiz mumkin.

Metodni qo'llash bo'yicha namuna: 46-§. Qullar va gladiatorlar [4].

Mavzuda keltirilgan qullar va gladiatorlar hayotini "Fikrlovchi olti qalpoqcha" metodi yordamida tahlil qilamiz:

Oq qalpoq: Qadimgi Rim davrida qullar inson huquqlaridan mahrum etilgan edi. Gladiatorlar ko'pincha majburiy jangga jalb etilgan. Bu tizim jamiyatning keskin tabaqalanishiga olib kelgan.

Qizil qalpoq: Qullarning turmushi qo'rquv, azob va umidsizlik bilan to'la edi. Gladiatorlar janglari inson azoblarini tomosha qilishga asoslangan bo'lib, mehr-shafqat tuyg'usini pasaytirgan. Bu holat insoniylik qadriyatlariga zid bo'lgan.

Qora qalpoq: Qullik tizimi - bu ochiqdan-ochiq zulm va ekspluatatsiya shakli hisoblanadi. Gladiatorlar urushlari zo'ravonlikni targ'ib qilgan va uni asta-sekin normal holatga aylantirgan. Bu holatlar jamiyatning axloqiy inqiroziga sabab bo'lgan.

Sariq qalpoq: Ba'zi qullar ozod bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan, lekin bu juda kam hollarda kuzatilgan. Gladiatorlar shon-shuhratga erishgan, ammo bu hayot evaziga qo'lga kiritilgan. Ijobiy tomonlari bo'lsa-da, ular tizimning adolatsizligini oqlay olmaydi.

Yashil qalpoq: Agar inson huquqlari qadrlanganda, qullik tizimi umuman shakllanmagan bo'lar edi. Gladiatorlar urushi o'rniga sport va san'atga asoslangan tinch musobaqalar rivojlantirilishi mumkin edi. Jamiyatni rivojlantirish uchun majburlash emas, balki erkinlik asos bo'lishi kerak edi.

Ko'k qalpoq: qullar va gladiatorlar tuzumi insoniyat tarixidagi eng adolatsiz tuzumlardan biri hisoblanadi. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, kuchga asoslangan jamiyat barqaror va adolatli bo'la olmaydi. Hozirgi jamiyat uchun asosiy saboq - inson qadrini har qanday sharoitda himoya qilish zarur.

Bu metodni darsning yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida kichik guruhlarda o'tkazish tavsiya etiladi. Bunda sinf o'quvchilaridan 6 ta kichik guruh tuziladi va har bir guruhga rangli qalpoqchalarning bittasi bo'yicha topshiriqni bajarish topshiriladi. Topshiriq yakunida guruhlarning taqdimoti o'tkaziladi. Guruhdan bir o'quvchi ixtiyoriy ravishda boshiga rangli qalpoqchani kiyib, topshiriq bo'yicha ma'lumot beradi. Mazkur metod o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni, o'zaro muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'tilgan mavzular yoki fanlar bilan integratsiyalashgan holda topshiriqlar berishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda rivojlantiradi, har qanday muammoli vaziyatda ham o'zlarining fikriga, yechimiga ega bo'lish hamda uni boshqalarga o'tkaza olishga o'rgatadi, ularda tarixiy bilimlar bilan birga hayotiy tajribani ham oshiradi. O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalaridan hisoblangan kommunikativlik, guruh, jamoa bo'lib ishlash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari bilan birga kognitiv qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi (30.09.2020)
2. O'zbekiston Milliy enciklopediyasi T-2011
3. Дилтс Р. НЛП: управление креативностью. - Санкт-Петербург: Питер, 1993. - 307 с.
4. Sagdullaev A.S. Kosteckiy V. A. Tariyx (Áyyemgi dúnya) T-2022